



**Bekzod BOYMATOV,**

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

E-mail: bekzodboymatov1985@gmail.com

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, katta ilmiy xodimi, PhD M.Qaraxonova taqrizi asosida

## TECHNOLOGIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS.

Annotation

This article describes the methods of encouraging students to imagine, be creative, think, and think creatively in the process of teaching natural sciences in general secondary schools.

**Key words:** Science, interdisciplinary integration, method, methodology, educational technologies, dissemination method, research and project methods.

## ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В данной статье описаны методы поощрения учащихся к воображению, творчеству, мышлению, творческому мышлению в процессе преподавания естественных наук в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** Наука, междисциплинарная интеграция, метод, методология, образовательные технологии, метод распространения, исследовательский и проектный методы.

## UMUMTA'LIM MAKTABALARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Annotasiya

Ushbu maqolada umumiyoq o'rta ta'limga maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarni tasavvur qilishga, ijodkorlikka, o'yashga, kreativ fikrlashga undavchi metodlar yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy fanlar (Science), fanlararo integratsiya, metod, metodologiya, ta'limga texnologiyalari, tarqatmalar usuli, tadqiqot va loyiha usullari.

**Kirish.** Jahonda ta'limga oluvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha ilmiy dunyoqarashini rivojlanishini ta'minlash, hususan maktab o'quvchilarining bilim darajasini jahon standartlariga moslashtirish maqsadida zamonaviy o'qitish ta'limga dasturining samaradorlik ko'satkichini belgilashga katta e'tibor qaratmoqda. Shuning uchun o'quvchilar tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishning samarali ta'limga texnologiyasi sifatida STEAM – ta'limi [4] asosida ta'limga oluvchilar tabiiy fanlar (Science)ni o'qitish jarayonida fan, texnika va texnologiya, muhandislik, san'at, dizayn va matematika elementlarini amaliyot bilan bog'lab o'rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur ta'limga texnologiyalari o'quvchilarga ilmiy, texnologik, konstruktiv, badiiy-estetik va matematik komplitentsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa maktab o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jaryoniga STEAM texnologiyalarni qo'llash orqali bilim olishlarida muhum ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda ta'limga sohasini modernizatsiyalash jarayonini innovotsion yondashuvlar asosida tashkil etish hamda maktab o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishga qaratilgan fanlararo integratsiyani ta'minlash, amaliy izlanishli faoliyatga yo'naltirilgan "Tabiiy fanlar" (Science)ni joriy etilishi ustivor ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida "STEAM" fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil ishlash va tahlil qilish kontsepsiyalari hamda malakalarini rivojlantirishga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy iqtisodiyot talabalariga javob beradigan "umumta'limga dasturlari va yangi davlat ta'limga standartlari joriy etish" kabi vazifalar aniq belgilab berilgan. Natijada o'quvchilarning tabiiy fanlarni bilish jarayonida intellektual qobiliyatlari hodisalarini ilmiy jihatdan tushuntirish imkoniyati bilan rivojlantirish nazarda tutilgan. Unda:

o'quvchilarning dars davomida mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga imkon yaratish;

ta'limga berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki "mavzu" lar bo'yicha integratsiyalab o'qitish asosida muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli kasblarga talab yuqori bo'ladi;

tabiiy-ilmiy bilimlarni real hayotda qo'llash imkoniyatlari kengayadi;

ta'limga oluvchilarni tanqidiy tafakkur va erkin fikrlash ko'nikmalari rivojlanib mustaqil hayotga maqsad sari intilishlari ortadi;

tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan o'quvchilarni qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Tabiiy fanlar (Science)ni umumta'limga maktablarida o'qitishda ta'limga texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Chunki xalqaro amaliyotda va O'zbekistonda olib borayotgan tajribalar o'rganildi. Ya'ni tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda ayniqsa, o'quvchilarga olam va borliqqa nisbatan bilimlarini oshirishga yordam beradi. Kelajakda o'quvchilar kimyo, fizika, biologiya, geografiya kabi fanlarning qiyin emasligini, balki ularning juda ham qiziqarli ekanligini anglab va ta'limga samaradorligini oshirishda ta'limga texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Odatda, maktab o'quvchilarini tabiiy fanlarni o'zlashtirish juda ham qiyin deb tasavvur qilishadi, zero, tabiiy fanlarning barchasi hayotimizga juda ham bog'liq.

Mamlakatimiz maktabgacha va maktab ta'limga tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv metodik adabiyotlarni zamon talalariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalardan, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oglagan. Masalan, ta'limga isloq qilish bo'yicha keng amaliy harakatlar 2017-yildan boshlandi. Umumiyoq o'rta ta'limga eski davlat ta'limga standartlari (DTS) o'rnini bosadigan va ta'limga o'zgarishlar kiritila oladigan Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi. Milliy o'quv dasturida ko'zda tutilgan o'qitish metodologiyasi va yangi darsliklar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, mashq daftarlari, o'quv-metodik materiallarni ta'limga rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur dasturda tabiiy fanlar (Science) chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitishga qaratilgan bo'lib, bunda

asosiy e'tibor mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Tabiiy fanlar (Science) qaysidir fanlarning o'rniga joriy etilayotgani yo'q. Aksincha, u ta'limg sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integrativ tarzda o'qitilishini ta'minlaydi. Masalan: yomg'ir yog'iш jarayonini kuzatish orqali o'quvchi uning tarkibini (biologiyaga oid tushunchalar), qanday hosil bo'lishi (fizik xususiyatlari), qaysi fasllarda qayerlarda ko'proq yog'iшi (geografik xususiyati), yomg'ir ta'sirida yerda qanday o'zgarishlar bo'lishi, o'simliklar uchun foydasi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi.

Tabiiy fanlar(Science)ni o'qitish samaradorligini oshirishda ta'limg texnologiyalarini bir qancha turga ajratish mumkin:

1. Zamonaviy ta'limg texnologiyalari o'quvchilar uchun nazarini bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashuviga yordam beradi;

2. An'anaviy ta'limg texnologiyalari amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi amaliy faoliyatini;

3. Aralash ta'limg texnologiyalari samarali ishslash ko'nikmasini shakllantirish.

Yuqoridaq fikrlarga asoslangan holda o'quvchilarning tabiiy fanlar (Science) bo'yicha savodxonlikni shakllantirishning samarali ta'limg texnologiyasi sifatida:

**Tahsil va natijalar.** Tabiiy yo'nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish; izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish; tegishli proqnozlar qilish va asoslash; izohlovchi farazlarni taklif etish; berilgan muammoni ijodiy va amaliy tadqiq etish usullarini baholash.

Ijodiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash - berilgan ijodiy tadqiqotda o'rganilayotgan muammoni aniqlash; ijodiy loyihalarni tadqiq etilishi mumkin bo'lgan savollarni farqlash; berilgan muammoni ijodiy va amaliy tadqiq etish usulini taklif etish; berilgan muammoni ijodiy va amaliy tadqiq etish usullarini baholash.

Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish - ma'lum bir ko'rinishdagi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda ifodalash; ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish; ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash; turli manbalar (masalan, gazeta, jurnal, Internet)dan olingan amaliy topshiriqlarni bajarishda mulohaza va dalillarni baholash.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, fanlarning o'zar integratsiyasi o'quvchilarida tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashlariga yo'naltirmog'i lozim. Shu bilan birga, o'quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobjiy ta'siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunishi, Shuningdek, sog'lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Ta'limg sohasi rivojlangan xorijiy davlatlar Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya mamlakatlarining ta'limg sohasidagi tajribasidan tabiiy fanlar (Science) ni o'qitishda o'quvchilarini tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishda geografik qonuniyatlarini hisobga olish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

Shu nuqtai nazarda umumta'limg maktablarida o'quvchilarini tabiiy fanlar (Science) bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch keladigan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish hamda tabiiy fanlar (Science)dan Davlat ta'limg standarti talalarini ta'limg sifatiga qo'yiladigan xalqaro talablarga mosligini ta'minlash maqsadga muvofiqidir.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar sodda bilimlardan-murakkabiga, alohidalikdan-butunlikka, shuningdek

yozuvsiz xaritalarni to'ldirish orqali geografik ob'ektlarni bir-biri bilan taqoslashga, ayrim xususiyat va jihatlarini solishtirish va qiyoslashga imkoniyati bilan bu boradagi o'z tasavvurlarini shakllanishiga erishadilar.

Xorijiy davlatlaridagi geografiya o'qitishda o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, buni birgina geografiya o'qitish usullari orqali ham farqlasa bo'ladi va quyidagi usullardan iborat:

Evristik suhbat usuli - bu usulda asosiy e'tibor o'quvchilar kichik tadqiqotlar orqali bilim olishga o'rgatishga qaratiladi. Turli hujjatlar va rasmlar asosida muammoli savollar o'quvchilar diqqatiga havola etiladi va natijada ular yordamida dastlabki kichik ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarini shakllanadi. Bunday usul ko'proq AQSh, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda keng qo'llaniladi;

Tarqatmalar usuli - bu usulda turli chizmalar, jadvallar, xaritalar har xil xatoliklari bilan o'quvchilar tarqatiladi, ular esa yo'l qo'yilgan o'sha xatoliklarni mustaqil topishlari talab qilinadi. Natija esa ko'plab turli xil shu tarzagi topshiriqlarni yechish orqali tabiiy fanlar darslariga qiziqishlarni oshirishga sababchi bo'ladi. Yana bu o'qitish usulida, matnlar orqali, ya'ni javoblarni to'g'ri yoki noto'g'ri shaklda aralashtirib berish va ularni raqamlar bilan belgilab ajratish keng tarqagan hisoblanadi;

Statistik manbalar, kartografik qo'llanmalar va matematik modellashtirish kabi o'qitish usullari ham AQSh, Buyuk Britaniya va Rassiya davlatlarda keng tarqalgan va o'z navbatida o'quvchilar o'rtasida bahs-munozaralarga hamda ilmiy tortishuvlarga imkon yaratib beriladi. Tabiiy fanlar yo'nalishda olib boriladigan ilmiy ishlarda yana bir qancha usullardan foydalilanildi va ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Bilishing umumiy usuli-didaktik usul, ya'ni o'quv jarayoni va o'quvchilar oqning rivojlanishi hamda tarbyasi bir-biri bilan aloqadaligiga qaraladi;

Nazariy tekshirish usuli-asosan o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni qonuniyatlarini ochishga, umumlashtirishga yo'naltiriligan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash ikonyatini beradi. Mazkur ta'limg texnologiyasidan Kanada va Buyuk Britaniya davlatlari ta'limg tizimida keng foydalinmoqda.

Ta'limg-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'tkazishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar tabiiy fanlar(Science)ni mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish orqali o'quvchilarini hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqardi.

Umumta'limg maktablarida tabiiy fanlar(Science)ni o'qitish orqali o'quvchilarida mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishslash, ijodkorlik, tizimi va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini ortadi hamda kelajakda o'z kasbiy faoliyatini atrof-muhitni asrashga qaratish, jonli va jonsiz tabiatni his qilishga oid fikrlarni tushunishi, tabiatni sevish va hurmat qilish qobiliyatlarini rivojlantiriladi.

Yuqoridaq tahlillar natijasida quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin.

tabiiy fanlar (Science) mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'limg-tariya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatqiq etish;

tabiiy fanlar (Science) mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati mavjud bo'lgan hayotiy bilimlarni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini shakllantirish;

umumiy o'rta ta'limg jarayoniga tabiiy fanlar (Science) ni o'qitishda milliy, umuminsoniy va ma'nnaviy qadriyatlar asosida o'quvchilarini tariyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish muhummah amaliyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-conli Farmoni.

2. 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 24-dekabrda”gi 414-sonli buyrug‘i.
4. STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at steam education Conference, Porto 2019 (<https://steameducation.eu/bookinginformation.html>).
5. K. T. Suyarov, Z. B. Sangirova, M. T. Umaraliyeva, S. G. Xasanova, M. K. Yuldasheva, D. T. Hasanova (2022) –Tabiiy fanlar [Matn]: 6-sinf uchun darslik Toshkent: Respublika ta’lim markazi.–224 b.